SO’NGI YILLARDA QO’QON SHAHAR SOG’LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI UMUMIY KO’RSATKICHLAR VA NATIJALAR

Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o’g’li
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada so’ngi yillarda Qo’qon shahri sog’liqni saqlash tizimida yuz bergan islohotlar, kasalxonalar soni, unda faoliyat olib borayotgan shifokor va hamshiralar, aholi orasida uchrayotgan kasalliklar, shuningdek, kasalxonalarga murojaat qilayotgan bemorlar haqidagi ma’lumotlar statistik materiallar asosida izohlab berilgan.

Kalit so’zlar: Sog’liqni saqlash tizimi, ambulatoriya-poliklinika, qon aylanish tizimi kasalliklari, shifokorlar, shifoxona, feldsher.

Аннотация: В данной статье рассмотрены реформы, произошедшие в системе здравоохранения города Коканда за последние годы, количество больниц, работающих в них врачей и среднего медицинского персонала, заболеваемость среди населения, а также сведения о пациентах, обращающихся в стационары основаны на статистических материалах.

Ключевые слова: система здравоохранения, амбулаторная поликлиника, болезни системы кровообращения, врачи, стационар, фельдшер.

Abstract: In this article, the reforms that have taken place in the healthcare system of the city of Kokand in recent years, the number of hospitals, doctors and nurses working in them, diseases among the population, as well as information about patients applying to hospitals are based on statistical materials. explained.

Key words: Healthcare system, ambulatory polyclinic, circulatory system diseases, doctors, hospital, paramedic.

Har bir davlatda avvalo aholining salomatligi muhim darajada ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, ushbu soha bugungi kunda Qo’qon shahrida ham dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi yillarda aholi salomatligini tiklash, uning reproduktiv salomatligini mustahkamlash, aholi orasida uchrayotgan kasalliklarni kamaytirish borasida ishlar olib borilmoqda. Misol sifatida bugungi kunda sog’liqni saqlash tizimi Qo’qon shahri hududida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2016-yilda shahar hududida shifoxona muassasalarining umumiy soni 19 tani tashkil etgan bo’lsa [1, 70 b], 2017-yilda bu ko’rsatkich 20 tani tashkil etgan. 2018-yilda shaharda mavjud kasalxonlarining soni 20 ta, 2019-yilda 18 tani tashkil etgan [2, 143 b]. Qisqa vaqt davomida shahar hududida joylashgan kasalxonalarning soni o’rtacha 19 tani tashkil qilmoqda. Bundan tashqari aholi salomatligini yaxshilash uchun xususiy davolanish maskanlari ham o’z faoliyatini ham olib bormoqda.

Shifoxonalarning umumiy davolanish o’rnining sig’imi 2016-yilda 1649 o’rinni, 2017-yilda 1653 o’rinni [1, 70 b], 2018-yilda 1653 o’rinni va 2019-yilda 2075 tani tashkil etgan [2, 143 b]. Shahar hududida joylashgan kasalxonalarda 2016-yilda jami 67787 kishi, 2017-yilda 72114 kishi davolangan. 2018-yilda esa davolangan bemorlarning soni mos ravishda 72114 tani va 2019-yilda 76016 tani tashkil etgan [3, 17 b]. 2016-2019-yillarda shahar kasalxonalarida davolangan bemorlarning soni +8229 tani tashkil qilgan. Shahar aholisining kasalxonalarga murojaatining ko’payib borishi o’z navbatida malakali shifokorlarning xizmat ko’rsatish sifati bilan ham bog’liq, shuningdek, aholiga xizmat ko’rsatayotgan shifokorlarning ham soni o’z navbatida mos ravishda oshib bormoqda. 2016-yilda oliy ma’lumotli shifokorlarning soni 987 kishini, 2017-yilda 1039 kishini, 2018-yilda 1039 kishini va 2019-yilda 1182 kishini tashkil etgan [2, 143 b]. 2016-2019-yillarda shifokorlarning umumiy soni +195 tani tashkil etgan. Shuningdek, o’rta tibbiyot hodimlarining soni 2016-yilda 4714 tani [1, 70 b], 2017-yilda ham shuncha miqdorni va 2018-yilda 4888 tani, 2019-yilda mos ravishda 3481 tani tashkil etmoqda [2, 143 b]. O’rta tibbiyot hodimlarining soni 2016-2019-yillarda -1233 tani tashkil qilgan holda, ancha miqdorda kamayganligini ko’rish mumkin. O’rta tibbiyot hodimlarining soning kamayishi o’z navbatida oliy hamshiralik ma’lumotiga ega tibbiyot hodimlarining soni oshganligi bilan izohlanadi. Misol uchun, oliy hamshiralik ma’lumoti bo’lgan hamshiralarning soni 2016-yilda 16 tani, 2017-yilda ham mos ravishda 16 tani tashkil etgan [1, 70 b] bo’lsa, 2018-yilda bu ko’rsatkich kamayib 12 taga tushgan. Lekin ushbu ko’rsatkich 2019-yilda 200 tagacha keskin oshganligini ko’rish mumkin [3, 18 b]. 2016-2019 yillarda oliy hamshiralik ma’lumoti bo’lgan hamshiralarning soni +184 taga ko’paygan. Ya’ni, shahar sog’liqni saqlash tizimida aholi salomatlgi muhofazasini kuchaytirish maqsadida malakali kadrlarning soni oshib borganligini ko’rib o’tishimiz mumkin. Bu esa aholiga sifatli xizmat ko’rsatishni yaxshilash imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, shahar bo’yicha o’rtacha 18 ta kasalxonalar faoliyat olib borgan. Shifokorlarning soni 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 106,3 % ga, o’rta tibbiyot hodimlarining soni esa 111,9 % ga ortgan [2, 144 b]. Shahar kasalxonalarida asosiy sohalardan tashqari yana 13 dan ortiq yo’nalishlardagi shifokorlar xizmat ko’rsatadi. Shu jumladan, tish shifokorlari, sanitariya feldsherlari, doyalar, sanitar shifokorlar va boshqa yo’nalishdagi tibbiyot hodimlari aholiga xizmat ko’rsatish bilan band.

Aholi salomatligi va uning kasalliklarni davolash va oldini olish bo’yicha sa’y-harakatlarida ambulatoriya-poliklinika muassasalari muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda bunday turdagi kasalxonalarning soni ortib bormoqda. Misol uchun, 2016-yilda ularning soni 30 ta bo’lgan bo’lsa, 2017-yilga kelib ularning soni 2 barobarga ko’payib 61 tani tashkil qilgan [1, 71 b]. 2018-yilda bunday kasalxonalarning soni 66 tani, 2019-yilda 68 tani tashkil qilgan [2, 144 b]. Bunday kasalxonalar sonining ortishi aholida orasida uchaydigan turli yuqumli va

boshqa turdagi kasalliklarni vaqtida aniqlash va ularga samarali davo choralarini qo'llash imkonini beradi. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari xizmatidan foydalangan aholi soni statistik ma'lumotlarga qaraganda 2016-yilda 54701 kishini tashkil etgan. 2017-yilda bunday ko'rsatkich keskin oshib, 138171 kishini tashkil qilgan [1, 71 b]. Bunday ko'rsatkichning keskin oshishiga ambulatoriya-poliklinika muassasalarining 2017-yilda o'tgan yilga nisbatan 31 taga ko'payganligi bilan izohlash mumkin. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari murojaat qilgan bemorlarning soni 2018-yilda o'tgan yilga nisbatan +15230 ga ortib, 153401 tani tashkil qilgan [3, 18 b]. 2019-yilda 140908 kishi bunday xizmat turlaridan foydalangan. Shu bilan birga ayrim kasalliklar bilan kasallanish holatlari bo'yicha o'sish kuzatilgan. Masalan, 2017-yilda 2016-yilga nisbatan qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immum mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar bo'yicha 2,5 barobarga, qon aylanish tizimi kasalliklari bo'yicha 1,8 barobarga oshgan [4, 1 b]. 2019-yilda 2018-yilga nisbatan teri va teri osti to'qimasi kasalliklari bo'yicha 111,7 % ga, siydik-tanosil tizimi kasalliklari 114,3 % ga oshgan [2, 144 b]. So'ngi yillarda aholi orasida ko'proq uchrayotgan kasalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Ba'zi yuqumli va parazitar kasalliklar – ushbu kasalliklar bilan 2018-yilda 3324 kishi og'rigan va shahar kasalxonlarida davolangan.

2) Endokrin tizim kasalliklari, ovqatlanish va modda almashinuvi buzilishlari – 2017-yilda 10273 kishi shunday turdagi kasalliklar bo'yicha shifokorlarga murojaat qilishgan [3, 18 b].

3) Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immum mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar sohasida eng ko'p murojaat 2017-yilda kelib tushgan bo'lib, murojaat qiluvchilarning umumiy soni – 29822 kishini tashkil qilgan [1, 72 b]. Ko'z va uning qo'shimcha apparat kasalliklari yuzasidan 2018-yilda eng ko'p shikoyat tushgan bo'lib, ularning soni shu yilda 35774 tani tashkil qilgan [4, 1 b].

4) Qon aylanish tizimi kasalliklari – yaqin yillar orasida aholi o'rtasida eng ko'p uchrayotgan kasallik hisoblanadi. Ushbu sohada muammolar bo'yicha 2019-yilda 202897 kishi shifokorlar murojaat qilgan [2, 145 b].

5) Jarohatlanish, zaharlanishlar va ayrim tashqi sabablar bilan bog'liq asoratlar – 2018-yilda eng ko'p uchraydi va bu yilda ko'rsatkich 14584 tani tashkil qilgan [4, 1 b].

6) Nafas olish a'zolarida uchraydigan kasalliklar- ush bu turdagi kasalliklar soni ham yaqin yillar ichida aholi orasida ko'payib bormoqda, eng yuqori ko'rsatkich 2019-yilda qayd etilgan bo'lib, unda 63291 tani tashkil qilgan [3, 19 b].

Shuningdek, eng ko'p uchrayotgan kasalliklar orasida teri va teri ostki to'qimasi kasalliklari (2018-yil – 33628 kishi), ovqat hazm qilish sohasidagi kasalliklar (2018-yil – 33534 kishi) va homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqda keyingi davr asoratlari (2019-yil – 12405 kishi) kabi bir qator kasalliklarni sanab o'tish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, so’ngi yillarda shahar sog’liqni saqlash tizimida yuz bergan o’zgarishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda, aholi orasida kasalliklarni muddatdan oldin aniqlash, ularni o’z vaqtida davolash uchun ham yetarlicha sharoit yaratib berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Qo’qon shahrining 2016-2018 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to’g’risida AXBOROTNOMA. Qo’qon – 2019. 94 b.

2. Qo’qon shahar 2017-2019 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to’g’risida AXBOROTNOMA. Farg’ona - 2020. 147 b.

3. M.M.Qodirov. “Qo’qon shahrining ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayoti (1991-2019 yillar)”. Qo’qon. 2021. 84 b.

4. https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/9614-qo-qon-shahri-boyicha-moliya-sohasida-ko-rsatilgan-xizmatlar-qanchani-tashkil-etdi-2.html